

A.Qodiriy nomli JDPI Boshlang'ich ta'lim fakul'teti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'tkazilgan ochiq ma'ruza mashg'ulot darsi yuzasidan

B a y o n n o m a

01.03.2022 yil

Jizzax shahri

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o'qituvchilari.

KUN TARTIBI:

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining kafedra mudiri p.f.n., dots G.Xolboyevaning boshlang'ich ta'lim fakulteti 205-206-207-209-guruhlarida "Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish" mavzusidagi ochiq ma'ruza mashg'uloti darsining muhokamasi.

2. Har xil masalalar.

Eshitildi: Yig'ilishni kafedra dotsenti A.Tangirov ochib berdi. Yig'ilish kun tartibi bilan barchani tanishtirdi. Yig'ilish kun tartibi bir ovozdan ma'qullandi. Kafedra katta o'qituvchisi dotsent G.Xolboyevaning 205-206-207-209-guruhlarda "Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish" mavzusidagi ochiq ma'ruza darsi o'tkazilganligini va bu darsda o'z oldiga qo'yilgan maqsadga imkon qadar erishganligini ta'kidlab o'tdi. Bundan tashqari o'qituvchining nutq malakasi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyati to'g'risida iliq fikrlar bildirdi va talabalarga mavzu bo'yicha yangi o'quv adabiyotlarini va internet manbalarini, ular e'tiboriga havola etilganda yanada maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng, ushbu muhokama yuzasidan kafedra dotsenti A.Usmonovga so'z berildi. U so'zga chiqib, o'qituvchi G.Xolboyevaning darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rganligini aytdi.

Dars talabga javob berishini, axborot ko'lami ko'p qirraliligini, darsga ijodiy yondasha olganligini, mavzuning maqsadi va vazifalarini talabalar ongiga izchillik bilan uzviy bog'liqlikda etkaza olganligini ta'kidlab o'tdi. O'qituvchining darsni barcha talabalar uchun qiziqtirib o'tishi bo'yicha ijobiy fikrlar bildirdi.



So'ngra kafedra a'zolaridan katta o'qituvchi H.Shukurova va S.Mamayusupovalar so'zga chiqib, yuqorida aytilgan fikrga qo'shimcha qilib, o'qituvchining mahorati talabga to'liq javob berishini, nutqining ravonligini, milliy adabiy tilda va ilmiy, zamonaviy axborot texnologiyalari terminlarini tushunarli

tarzda bayon etilganligini ta'kidlab o'tdi. Barcha bildirilgan fikrlarni kafedra a'zolari bir ovozdan ma'qullashdi.

Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalarni inobatga olib yig'ilish

Qaror qiladi:

1. O'qituvchi G.Xolboyevaning ochiq ma'ruza mashg'uloti yuzasidan kafedra kafedra f.f.n., dots. A.Tangirovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Muzokaraga chiqqan kafedra o'qituvchilari A.Usmonov, A.Tangirov, H.Shukurova, S.Mamayusupovalarning bildirgan ijobiy fikrlari inobatga olinsin.
3. O'qituvchi G.Xolboyevaning boshlang'ich ta'lim fakul'teti 205-206-207-209-guruhlarda "Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish" mavzusidagi onlayn ochiq ma'ruza darsi namunali tashkil etilgan deb topilsin.



p.f.n., dots G.A.Xolboyeva

Mirolimov U.